

Uzbekistan Airways Urganch, Nukus va Buxoroga qo'shimcha qatnovlarni joriy qiladi

2021 22 Dekabr

Uzbekistan Airways yangi yil bayram kunlari arafasida – 2021-yilning 29-dekabridan 31-dekabriga qadar Toshkentdan Nukus, Urganch va Buxoro shaharlariga qo'shimcha qatnovlarni yo'lga qo'yadi.

Aviaqatnovlar quyidagi harakat jadvali bo'yicha amalga oshiriladi (mahalliy vaqt):

Toshkent-Buxoro-Toshkent yo'nalishida 29-dekabr chorshanba kuni qo'shimcha qatnov amalga oshiriladi.

Toshkentdan jo'nab ketish 17:00, Buxoroga yetib kelish 18:10

Buxorodan jo'nab ketish 18:50, Toshkentga yetib kelish 19:50

Toshkent-Nukus-Toshkent yo'nalishida 29-dekabr va 31-dekabr kunlari qo'shimcha reyslar amalga oshiriladi.

Toshkentdan jo'nab ketish 13:10, Nukusga yetib kelish 14:50

Nukusdan jo'nab ketish 15:30, Toshkentga yetib kelish 16:50

Toshkent-Urganch-Toshkent yo'nalishida 29-dekabr va 31-dekabr kunlari qo'shimcha reyslar amalga oshiriladi.

29 dekabr chorshanba:

Toshkentdan jo'nab ketish 19:30, Urganchga yetib kelish 21:00

Urganchdan jo'nab ketish 22:00, Toshkentga yetib kelish 23:20

31 dekabr juma:

Toshkentdan jo'nab ketish 12:50, Urganchga yetib kelish 14:20

Urganchdan jo'nab ketish 15:20, Toshkentga yetib kelish 16:40

Aviachiptalarni aviakompaniyaning rasmiy saytidan, Uzbekistan Airways Sales filialidan yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qilish mumkin. Eslatib o'tamiz, aviakompaniyaning rasmiy sayti orqali aviachipta xarid qilib olayotganda 3% chegirma taqdim etiladi.

Telegram: t.me/uzbekistanairways